


V. XIZMATLAR

Hozirgi vaqtida xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, 36 168 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 21 322 ta korxona va tashkilotlar jalb qilingan.

**2022- yil 1- yanvar holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 16 422 ta korxona va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, ularning ulushi 52,5 %ni tashkil etdi.

**2022- yil 1- yanvar holatiga xizmatlar sohasiga jalg qilingan,
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %**



2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (58,7 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o‘sishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ularning ulushi 10,2 % ni tashkil etdi.


Tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiyligi sonidagi ulushi 7,2 % ni tashkil etdi.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko‘rsatuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 4,1 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,6 % ni tashkil etdi.

**2022- yil 1-yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha tarkibi, %**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 13 262,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,4 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (31,9 %), transport xizmatlariga (22,1 %), moliyaviy

xizmatlarga (16,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (4,5 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

**2021- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, %**



2021- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o‘tgan yilga nisbatan 2 912,9 mlrd. so‘mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2021- yil yanvar-noyabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 1 122,5 mlrd. so‘mga ko‘paydi.

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sishiga savdo xizmatlari (361,9 mlrd. so‘mga), transport xizmatlari (279,5 mlrd. so‘mga), moliyaviy xizmatlar (195,5 mlrd. so‘mga), hamda aloqa va axborot sohasidagi xizmatlar (54,2 mlrd. so‘mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2020- yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar – 489,2 mlrd. so‘mga, savdo xizmatlari – 778,1 mlrd. so‘mga, transport xizmatlari 757,9 mlrd. so‘mga va ta’lim sohasidagi xizmatlar – 189,5 mlrd. so‘mga oshgan.

**2021- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari**

	<i>Hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, %</i>
Xizmatlar – jami	13 262,4	118,4
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	599,1	120,0
moliyaviy xizmatlar	2 153,8	127,1
transport xizmatlari	2 929,6	122,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 794,5	119,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	361,6	107,4
savdo xizmatlari	4 224,6	110,2
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	330,0	121,1
ta’lim sohasidagi xizmatlar	562,8	143,9
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	176,0	127,7
ijara xizmatlari	343,2	122,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	450,0	118,1
shaxsiy xizmatlar	430,7	117,6
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	145,9	108,7

boshqa xizmatlar	555,1	109,4
------------------	-------	-------

Eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lif sohasidagi xizmatlarida 143,9 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 127,7 % moliyaviy xizmatlarda 127,1 %, transport xizmatlarida 122,8 % qayd etildi.

Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari yashash va ovqatlanish xizmatlari 107,4 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 108,7 % boshqa xizmatlari 109,4 % va savdo xizmatlar 110,2 %, da kuzatildi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 31,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari 22,1 %, moliyaviy xizmatlar 16,2 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 4,5 % egallaydi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 4 224,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 31,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 778,1 mlrd. so'mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo


bo‘yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 84,3 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,1 % ga yetdi. Avtomobillar va motosikllarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarni qo‘sghan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosи bo‘yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,6 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobjiy ta’sir ko‘rsatish uchun zarur.

Hayotning ko‘pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog‘liq ko‘plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %




2021- yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 599,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Oldingi davrga nisbatan o‘sishi 54,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog‘i, yo‘ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 95,3 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 93,4 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 6,6 % ga to'g'ri keladi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihamalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 2 153,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 127,1 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo‘yicha xizmatlar (85,0 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o‘quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 562,8 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilga nisbatan o‘sish 143,9 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi 361,6 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning ulushi 2,7 % ga yetdi.


**2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	<i>Hajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>O’tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, % da</i>
Qashqadaryo viloyat	13 262,4	118,4
Qarshi sh.	4 696,6	115,8
Shahrisabz sh.	653,2	129,0
G‘uzor	624,2	122,3
Dehqonobod	419,9	118,0
Qamashi	541,4	117,8
Qarshi	633,1	122,1
Koson	763,4	117,0
Kitob	768,0	119,2
Mirishkor	428,1	120,1
Muborak	546,1	119,1
Nishon	486,3	120,1
Kasbi	444,6	127,4
Chiroqchi	766,8	115,0
Shahrisabz	847,2	125,8
Yakkabog‘	643,5	122,1

Hududlar o‘rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (4 696,6 mlrd. so‘m), Shahrisabz (847,2 mlrd. so‘m), Kitob (768,0 mlrd. so‘m), Chiroqchi (766,8 mlrd. so‘m) va tumanlariga Koson (763,4 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keladi.

Eng kam hajm Dehqonobod (419,8 mlrd. so‘m) Mirishkor (428,1 mlrd. so‘m), Kasbi (444,6 mlrd. so‘m) va tumanlarida kuzatilmoqda.


2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’ati, %



Yuqori o‘sish sur’atlari Shahrisabz shahrida – 129,0 %, Kasbi tumani – 127,4 %, Shahrisabz tumani – 125,8 %, va G‘uzor tumani – 122,3 % kuzatildi.

Zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyatida tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog‘liqdir.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Hududlar o‘rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (35,4 %), Shahrisabz (6,4 %), Kitob (5,8 %) va Koson (5,8 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o‘rtasida eng kam ulush Mirishkor (3,2 %), Dehqonobod (3,2 %) va Kasbi (3,4 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har chorakda o‘sishi kuzatilmoqda. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan hajm 1 127,2 ming so‘mga oshib, 3 933,2 ming so‘mga teng bo‘ldi.

Tumanlar orasida bu ko‘rsatkich Qarshi shahrida 7654,2 ming so‘mdan, Chiroqchi tumanida 436,8 ming so‘mgacha oralig‘ida farq qildi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning maksimal o‘sishi Kasbi (132,1 %), Shahrisabz (128,5 %), va Yakkabog‘ (119,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Uncha yuqori bo‘lmagan o‘sish sur’atlari Muborak (115,2 %), Koson (115,0 %) Dehqonobod (113,7 %) tumanlarida va Qarshi shahrida (114,7 %) qayd etildi.